

**INGLIZ VA O'ZBEK TOVUSH TIZIMLARINI QIYOSIY
O'RGANISH**

Norqo'ziyeva Madina Mashrabjon qizi

Amaliy ingliz tili va adabiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Chet tillar filologiyasi fakulteti

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi Soxibov.S.N

norqozoevamadina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining fonetik tizimlari qiyosiy tahlil qilinadi. *Fonetika og'zaki muloqot uchun zarur bo'lgan asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Ko'plab o'quvchilar fonetik tovush tizimlarini o'rganishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu maqolada fonetik tovush tizimlarining muommolari to'liq yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada Ingliz va O'zbek tillarini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fonologik birliklarning farqlari va o'xshash jihatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, ikki tilning fonetik tizimlarining tuzilishi unli va undosh fonemalar, urg'u, intonatsiya kabi asosiy mavzulari qiyosiy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, tilshunos olimlarning izlanishi yordamida mavzu yanada to'liq yoritiladi.*

Kalit so'zlar: fonetika, fonologiya, tovush tizimi, unli va undosh fonemalar, monoftonglar, diftonglar, qiyosiy tahlil, urg'u, intonatsiya, artikulyatsiya, transkripsiya, talaffuzdagi xatolar.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the phonetic systems of the English and Uzbek languages. Phonetics is considered a key component of oral communication and an essential means of interaction. Many learners face specific difficulties in mastering phonetic sound systems. The article explores common issues related to phonetic systems and provides a detailed examination of these problems. Furthermore, it analyzes the differences and similarities between the phonological units of English and Uzbek, which are crucial for understanding both languages.



Special attention is given to the structural comparison of phonetic features such as vowel and consonant phonemes, stress, and intonation. The topic is further enriched through the insights of prominent linguists and relevant linguistic research.

Keywords: *phonetics, phonology, sound system, vowel and consonant phonemes, monophthongs, diphthongs, comparative analysis, stress, intonation, articulation, transcription, pronunciation errors.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ фонетических систем английского и узбекского языков. Фонетика рассматривается как важнейшее средство коммуникации, необходимое для устного общения. Многие учащиеся сталкиваются с определёнными трудностями при изучении фонетической системы звуков. В статье подробно освещаются основные проблемы, связанные с фонетическими системами. Также рассматриваются различия и сходства фонологических единиц, играющих важную роль в понимании английского и узбекского языков. Особое внимание уделяется сравнительному анализу структуры фонетических систем двух языков, включая такие ключевые аспекты, как гласные и согласные фонемы, ударение и интонация. Кроме того, тема более глубоко раскрывается с помощью исследований лингвистов.*

Ключевые слова: *фонетика, фонология, звуковая система, гласные и согласные фонемы, монофтонги, дифтонги, сравнительный анализ, ударение, интонация, артикуляция, транскрипция, ошибки произношения.*

Kirish

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo'lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo'ladigan turli xil fonetik hodisalar, kabi hodisalar o'rganiladi. Fonetika - (gr. Phone - tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. U tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli, unga tilning faqat tovush tizimini o'rganuvchi bo'lim sifatida qarash noto'g'ri.



Har bir til o'z fonetikasiga ega. Fonetika tovushlarning almashinishi va o'zgarishi, adabiy talaffuz me'yorlari, to'g'ri talaffuz qilish qoidalari, bo'g'in va urg'u, uning turlari kabi muammolarni ham o'rganadi. Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni o'rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan, ayniqsa, leksika va grammatika bilan bog'lanadi.

Fonologiya "fono" va "logiya" so'zlaridan olingan bo'lib, tilshunoslikning til tovushlari yasallishining struktur va funksional qonuniyatlarini, eng kichik, ma'nosiz birliklarning tuzilishi va amaliy qo'llanilishini o'rganuvchi bo'limidir. So'z yasallishi uchun tilda bo'g'inlar va fonemalar asos bo'ladi. Fonologiya tovushlarni tildagi ma'no farqlovchi birliklar - fonemalar sifatida tahlil qilinadi. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqati tovushlarning o'ziga fizik hodisa sifatida emas, balki ularning nutqda murakkabroq semantik birliklar - morfemalar, so'zlar sifatidagi rolini o'rganishga qaratilgan. Fonologiya va fonetika yo'nalishlari o'rganilish sohalariga ko'ra uzviy aloqador hisoblanib, ularning bir qator o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Fonetika nutq tovushlarini tasniflash uchun xizmat qiladi, fonologiya esa shu nutq tovushlarining tilimizdagi tizimli hosil bo'lish yo'llarini tadqiq qilishga xizmat qiladi.

Shu sababli fonologiya ba'zan funksional fonetika deb ataladi. Rus-chex tilshunosi N.S. Trubetskoyning fikricha, fonologiya va fonetika orasidagi umumiy aloqadorlik shundaki, har qanday fonologik tavsifning boshlanishi ma'noni farqlovchi tovush tafovutlarini aniqlashdan iborat; fonetik tavsif esa boshlang'ich nuqta va moddiy asos sifatida olinadi. Fonologiyaning paydo bo'lishi nafaqat tilshunoslikda, bundan tashqari bir qator ijtimoiy sohalar taraqqiyotida ham katta burilish yasaydi. Fonologiyaning tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajralib chiqishida va fonemani tovushdan (fonema variantidan) ajratish mezonlarini belgilashda N.S.Trubetskoyning xizmatlari e'tirof etiladi.

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining akustik- artikulyatsion tomonidan funksional tomonini farqlash ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Keyinchalik fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida



fonemalarning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etildi. Fonemalarning bevosita nutq jarayonida fonetikaning o'rganish ob'ektiga aylandi.

(N.S.Trubet)

Metodologiya:Ushbu taqdiqot Ingliz va o'zbek tillarining fonetik tizimlarini fonologik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilishga yo'naltirilgan. Taqdiqotda foydalanilgan asosiy metodlar sifatida ta'riflovchi,qiyoslash,taqqoslash,analitik-lingvistik yondashuvlar tanlanildi.Ushbu metodlar orqali ikki tilning tovush tizimi fonologik birliklari,urg'u,intonatsiya, kabi mavzular o'rganildi.

Muhokama va natijalar:Ingliz va O'zbek tilidagi fonetik birliklar.Har bir til o'ziga xos tovush tizimiga ega bo'lib,bu tizim tildagi unli va undosh fonemalarni yig'indisidan tashkil topadi.Shu kabi Ingliz va o'zbek tillarining fonetik tizimi ham bir biriga qanchalik o'xshashligi va farqlarini tahlil qilamiz.

Ingliz tili fonetik tizimi:Ingliz tili fonetik tizimi murakkab va boy tovush tizimiga ega.20 ta unli fonema va 24 ta undosh fonemani o'z ichiga oladi. Asosiy unli fonemalarni ikki guruhga ajratamiz;

1.Monoftonglar

2.Diftonglar.

Monoftonglar-artikulyatsiyasi davomida o'zgarmas tovushlardir.Ingliz tilida 12 ta monoftonglar bo'lib, ular talaffuzdagi uzunligi, hosil bolish o'rniga kora,lablar ishtirokiga ko'ra kabi fonetik xususiyatlariga ham ega.Ba'zi tovushlar uzoq cho'zilib tallafuz qilinadi bu esa-uzun unlilar deyiladi.Qisqa tallafuz qilingan unlilar qisqa unlilar sanaladi.

* Qisqa unlilar: /ɪ/, /e/, /æ/, /ʌ/, /ʊ/, /ə/, /ʊ/.

* Uzon unlilar: /i:/, /u:/, /ɜ:/, /ɔ:/, /ɑ:/.

* Diftonglar: /eɪ/, /aɪ/, /ɔɪ/, /aʊ/, /əʊ/, /ɪə/, /eə/, /ʊə/.

Tilning gorizantal harakatiga ko'ra uchga bo'linadi.Ular quyidagicha:

* Oldi qator unlilar (front vowels): /i:/ /ɪ/ /e//æ/.

* Markaziy qator unlilar (central vowels): /ʌ/, /ɜ:/, /ə/.

* Orqa qator unlilar (back vowels): /u:/, /ʊ/, /ɑ:/, /ɒ/, /ɔ:/.



Diftonglar- bu ikki xil unli tovushning bir bo'g'ida ketma-ket talaffuz qilinishi orqali hosil bo'ladigan murakkab unli tovushlardir.

Ingliz tilida 8 ta diftonglar mavjud.

/eɪ/,/aɪ/,/ɔɪ/,/aʊ/,/əʊ/,/ɪə/,/eə/,/ʊə/.

O'zbek tovush unli va undosh fonemalardan iborat.

1. Unli fonemalar. O'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud:

[a], [e], [i], [o], [u], [ö].

Bu unlilar monoftonglarga o'xshash, ular talaffuz qilinayotganda tilning hosil bolish o'rniga ko'ra joylashuvi, lablarning ishtirokiga ko'ra, va bo'g'izdagi bo'shliqning kengayishi asosida farqlanadi. O'zbek tilida ingliz tilidagidek diftonglar mavjud emas, ya'ni har bir unli tovush yagona artikulyatsion markazga ega, murakkab unli tovushlar fonemik birlik sifatida qaralmaydi.

1. Unli fonemalar tizimi. O'zbek tilida jami 6 ta unli fonema mavjud bo'lib, ular tilning artikulyatsion joyiga va lablarning holatiga ko'ra tasniflanadi. Ushbu unlilar quyidagilar:

- [a] old qator unli, quyi keng, lablanmagan unli
- [e] old, orta keng, lablanmagan unli
- [i] old, yuqori tor, lablanmagan unli
- [o] orqa, yuqori keng, lablangan unli
- [u] orqa, yuqori tor, lablangan unli
- [ö] orqa, orta keng, lablangan unli

O'zbek tilida 24 ta undosh fonema mavjud bo'lib, ular tovush hosil qilish usuli (portlovchi, sirtg'aluvchi, burun tovushlari) hamda hosil bo'lish joyiga (lab, til) ko'ra tasniflanadi. Quyidagi asosiy undosh fonemalarni keltirish mumkin:

1). Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

A) Lab undoshlari: Talaffuzda lab ishtirok etgan tovushlar lab tovushlari deyiladi. Lab tovushlariga b, p, m, f, v undoshlari kiradi. Ular ikki guruhga bolinadi.

1. Lab lab undoshlari -m, p, b

2. Lab tish undoshlari -v, f



2).Til undoshlari.Tilning tish va tanglayga tegishidan hosil bolgan tovushlarga til tovushlari deyiladi.Til tovushlariga t,d,s,z,ch,y,ng,q,g',x undoshlari kiradi.Tilning harakatiga ko'ra turlari 4 ga bolinadi.

1.Til oldi undoshlari-t,d,s,z,ch,j,sh,l,r,n

2.Til o'rta undoshi-y

3.Til orqa undoshlari-g,k,ng

4.Chuqur til orqa undoshi-q,g',x

3).Hosil bolish usuliga kora

- Portlovchilar: [p], [b], [d], [t], [g], [k], [q].
- Sirgaluvchi (frikativlar): [f], [v], [s], [z], [sh], [j], [x], [h].
- Burun tovushlar: [m], [n], [ng].
- Yon tovushlar va titrovchilar: [l], [r], [j] (y), [v].

Filologiya fanlari doktori Shonazar Shoabdurahmonov o'zining "O'zbek adabiy tili va xalq shevalari", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va boshqa tadqiqotlarida o'zbek tilining fonetik-fonologik tuzilishini, xususan, unli va undosh tovushlar tizimi, bo'g'in qurilishi va urg'u xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. U o'zbek tilining vokal tizimi haqida yozar ekan, quyidagi xulosani bergan:

"O'zbek tilidagi unli fonemalar o'z artikulyatsion xususiyatiga ko'ra til orqa va til oldi unlilariga bo'linadi. Bunday tasnif fonetik tizimni tabiiy ravishda aniqlashga xizmat qiladi".

Bu tasnif ingliz tilidagi unli tovushlar tizimi bilan solishtirilganda muhim nazariy poydevor yaratadi. Ingliz tilidagi unli fonemalar miqdoriy (short/long) va sifat (monoftong, diftong) mezonlari bo'yicha farq qilsa-da, Shoabdurahmonov tasvirlagan artikulyatsion xususiyatlar asosida har ikki til fonemalari tahlil qilinishi mumkin.

4).Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra :

1.Jarangli undoshlar-b,v,g,z,j,y,g'l,m,n,ng,r

2.Jarangsiz undoshlar-p,f,k,t,s,ch,sh,q,x,h.

Ingliz va O'zbek tillarining fonologik birliklari taqqosiy solishtiruvi:

Asosiy xususiyatlari	Ingliz tili	O'zbek tili
----------------------	-------------	-------------



Tovushlar tizimi(fonemalar)	44 ta fonema 20 ta unli 24 ta undosh	30 ta fonema 6 ta unli 24 ta undosh
Diftonglar	8 ta	Diftonglar mavjud emas
Monoftonglar	12 ta	6 ta
Undosh farqlari	24 ta	24 ta
Maxsus tovushlar	θ/, /ð/, /ŋ/, /w/, /ʃ/, /ʒ/, /h/, /dʒ/ ayrimlari o'zbek tilida mavjud emas	g'/,/q/,/x/kabi o'zbekka xos tovushlar mavjud, lekin ingliz tilida yo'q

O'zbek tili bo'g'in vaqtiga asoslangan til bo'lib, har bir bo'g'inga deyarli teng vaqt ajratiladi. Ingliz tili esa urg'uga asoslangan til bo'lib, urg'uli bo'g'inlar muntazam oraliqda talaffuz qilinadi, urg'usiz bo'g'inlar esa qisqartiriladi.

Bu holat natijasida o'zbek o'rganuvchilari ingliz tilida ohangsiz, tekis yoki monoton ritm bilan gapiradilar va bu ingliz tilining tabiiy ohangida uchraydigan ko'tarilish va pasayishlarning yo'qligiga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining fonetik tizimlari qiyosiy tahlil qilinib, ular orasidagi strukturaviy farqlar va o'xshashliklar ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqotim natijasi shuni ko'rsatdiki, ingliz tilining fonetik tizimi o'zbek tiliga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ayniqsa unli fonemalarning ko'pligi, diftonglarning mavjudligi, bilan ajralib turadi. O'zbek tilida esa fonemik tizim nisbatan soddaroq bo'lib, monoftonglar asosida tashkil topgan va diftonglar mavjud emas.

Tadqiqot natijalari fonetik interferensiyaning, ya'ni o'zbek tilida so'zlashuvchi insonlar ingliz tilini o'rganishda duch keladigan talaffuzdagi xatoliklar sabablarini ochib berdi. Ayniqsa, ingliz tilidagi ba'zi tovushlarning (masalan, /θ/, /ð/, /æ/, /ʌ/ kabilar) o'zbek tilida muqobili yo'qligi talaffuz muammolarini yuzaga keltiradi. Bu esa til o'rgatuvchilarga fonetika va talaffuzni o'rgatishda maxsus yondashuvlar qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada har ikki til fonetik tizimining artikulyatsion, akustik va struktur jihatlarini tizimli tahlil qilinib,



transkripsion yondashuv yordamida fonemalarning o‘zaro taqqoslanishi aniq natijalarni berdi. Bu yondashuv o‘zbek va ingliz tillarini chuqur o‘rganayotgan talabalar, o‘qituvchilar va tilshunoslar uchun foydali ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Trubetskoy, N. S. Fonologiya asoslari .Moskova:Nauka.1960.
- Shoabdurahmonov, Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston.2006
- Shoabdurahmonov, Sh. O‘zbek adabiy tili va xalq shevalari. Toshkent: Fan.2004.
- Roach, P. English phonetics and phonology Cambridge University Press.2009.
- Gimson, A. C. An introduction to the pronunciation of English Routledge.2001
- Ladefoged, P., & Johnson, A course in phonetics Cengage Learning.2014 K.
- Crystal, D. A dictionary of linguistics and phonetics. Blackwell Publishing.2008.